



SOVUQ URUSH DAVRIDA SOVET-AMERIKA MUNOSABATLARI TARIXIDAN

Qodirov Farruxjon Muxtorovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1980–1990-yillar oralig'i Sovet Ittifoqi (SSSR) va Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) o'rtasidagi sovuq urush davridagi eng muhim va keskinlashgan davri yoritib berilgan bo'lib, bu davr nafaqat qarama-qarshilik, balki muzokaralar, qurolsizlanish tashabbuslari va oxir-oqibat sovuq urush yakuniga olib kelgan jarayonlar bilan ham ajralib turishi, 1980-yillarning boshidagi taranglik, 1985-yildan keyingi iliqlashuv siyosati hamda ikki tomonlama munosabatlarning tarixiy natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Sovuq urush, respublikachilar, "sust jadallashayotgan mojarolar", "Pershin-2", Strategik qurollarni cheklash.

Аннотация. В статье рассматриваются 1980–1990-е годы — наиболее важный и напряженный период холодной войны между Советским Союзом (СССР) и Соединенными Штатами Америки (США), который характеризовался не только конфронтацией, но и переговорами, инициативами по разоружению и процессами, которые в конечном итоге привели к окончанию холодной войны. Анализируются напряженность начала 1980-х годов, политика потепления после 1985 года и исторические результаты двусторонних отношений.

Ключевые слова: холодная война, республиканцы, «медленно обостряющиеся конфликты», «Першин-2», ограничение стратегических вооружений.

Abstract: This article examines the 1980s–1990s, the most important and tense period of the Cold War between the Soviet Union (USSR) and the United States of America (USA), which was characterized not only by confrontation but also by negotiations, disarmament initiatives, and the processes that ultimately led to the end of the Cold War. It analyzes the tensions of the early 1980s, the policy of warming after 1985, and the historical results of bilateral relations.

Keywords: Cold War, Republicans, "slowly escalating conflicts", "Pershin-2", Strategic arms limitation.

Oq uyga respublikachilar ma'muriyatining kelishi amerika-sovet munosabatlarini sezilarli darajada qiyinlashtirdi. 1980-yining saylov oldi kompaniyasida R.Reygan haqqoniy va jiddiy bo'lgan qurollarni, avvalo strategik qurollarni qisqartirish, tarafdori ekanligini ta'kidladi.

Shunga qaramasdan 1981-yilning may oyida, prezident Vest-Poyntdagi AQSH Harbiy akademiyasida so'z bilan chiqqanda, ma'muriyatda "shartnoma va kelishuvlar



uchun qurollanishdan voz kechish uchun emas, balki, qanaqa qurollar yaratish" to'g'risida muhokamalar bo'ladi, deya omma oldida chiqish qilgandi²⁴.

AQSH ma'muriyati SSSRning tashqi siyosatini mumkin qadar chigallashtirishga, Moskvaga iloji bo'lgan tomonlardan bosim o'tkazish yo'li bilan, ta'ziq qilar edi. Yuqorida ko'rsatilgan "qurollanishgacha" bo'lgan dasturlardan tashqari, respublikachilar hukumati o'tmishdoshlaridan-da qattiq qo'l munosabatda, SSSR oldida inson huquqlari masalasini qo'yar, kommunistik tuzumga qarshi kurashganlarni Vashingtonning "sust jadallashayotgan mojarolar" doktrinasi doirasida ko'maklashadigan kompaniya yurgiza boshladilar²⁵.

Bu ma'noda AQSH milliy xavfsizligi kengashining 1983-yil 17-yanvardagi №17 (NSDD-75) direktivasi "SSSR bilan munosabat" deya sarlavhalanib, AQSHning SSSRga bo'lgan munosabatining quyidagi shakllanishi ko'rsatilgan hisoblanadi.

"1. AQSH siyosati nuqtai nazaridan ustun bo'lgan geografik hududlardan Sovet mustamlakachiligini to'xtatish va chiqarib yuborish.

2. SSSRda ko'p partiyali siyosiy va iqtisodiy tuzumini o'zgartiruvchi, keyinchalik esa uni mazkur doirada boshqaruvdagi elitaning kuchsizlanishiga olib keluvchi, o'zgarishlarni qo'llab quvatlash.

3. Amerikaning qiziqishlarini kengaytiruvchi va himoyalovchi maqsadlarni ko'zlagan muzokaralarga SSSRni jalb etish"²⁶.

Alohida e'tibor esa, SSSR boshqaruv hukumati almashayotgan vaqtda AQSHning mazkur pozitsiyasini boshqaruv elitasiga etkazishga qaratilgan. Geosiyosatda esa, o'zlarining kuchlarini quyidagi yo'nalishlarga jamlashni rejalashtirgandilar: ishlab chiqarish rivojlangan demokratik davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, AQSHga bo'lgan ishonchini uchinchi dunyoda tiklash, SSSR bosimiga qarshi bo'lgan davlatlarni qo'llash, Amerikaning kafolatini oshirib harbiy qurol jo'natishni ko'paytirish, uchinchi dunyoda Amerikaning xususiy biznesini meyorlash va yordamchi dasturlarni kengaytirish, "sovet imperiyasi"dagi nozik nuqtalarga bosim o'tkazish, Sharqiy Yevropa mamlakatlarini SSSR dan begonalashtirish, Afg'onistonda Sovetlarning turishi narxini ko'paytirish²⁷.

SSSR bilan ikki tomonlama munosabatlarda sovet hukumatining ichki siyosatdagi, asosan SSSRda inson huquqlari doirasidagi muammolarga e'tiborni kuchaytirish rejalashtirilayotgandi; hududiy muammolar faqatgina amerika talablari asosida o'tishi kekrak edi; ma'daniyat, ilm-fan va boshqa sohalaridagi hamkorlik kuchli g'oyaviy tadbiq doirasida bo'lishi va Sovet Ittifoqi texnologik yuksalishining ma'lumotini qo'lga kiritishiga to'sqinlik qilish edi.

AQSH va SSSR o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar sezilarli darajada pasaydi. 1980yilning boshida J. Karter tomonidan e'lon qilingan ketma-ket chegaralovlardan keyin, Sovet qo'shinlari Afg'onistonga kirgandan keyin, respublikachilar ma'muriyada chuqurlasha bordi. 1981-yil aprel oyida Karter ma'muriyati tomonidan SSSRga

²⁴ История новейшего времени стран Европы и Америки. 1945-2000. Под ред. Е.Ф.Язькова. М. 2002.с.365

²⁵ Алиева А.С. Всемирная история в таблицах и схемах. М., 1999.с. 525

²⁶ Малая энциклопедия событий, (Составитель Мирошникова В.В. и др.) М., 1999. С.54

²⁷ Пятницкий Л.М. История России. XX век. М., 1995. С.125



bug'doy sotish embargosining bekor qilinganligiga qaramay AQSH Sovet Ittifoqining G'arb bilan iqtisodiy va boshqa aloqalarini portlatishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqa boshladi²⁸.

1981-yilning dekabr oyida ma'muriyat SSSRni Polshaga harbiy qo'shin kirita boshlashda aybladi va SSSR bilan aloqalarni cheklovchi bir qator bir tomonlama harakatlarni e'lon qildi.

Bundan tashqari, Vashington o'zining g'arbdagi ittifoqdoshlari SSSR bilan iqtisodiy aloqalarni uzishlariga harakat qilgandi. 1982-yilning iyunida ular tomonidan bir necha talablar qo'yildi, unga ko'ra amerika firmalarining g'arbiy Evropadagi filiallari va hattoki amerika litsenziyalari bilan tovar ishlab chiqaruvchi mustaqil firmalar ham, Sovet Ittifoqiga Sibir-G'arbiy Yevropa gaz quvurini o'tkazishda uskunalar yuborishni to'xtatishni talab qildi²⁹.

Aloqalarning keyingi ta'qiqlovi 1983-yilda, SSSRning havodagi chegarasida Saxalin oroli ustidan sovet HHM kuchlari tomonidan Janubiy Koreyaning yo'lovchi samalyoti urib tushirilgandan keyin, davom etdi³⁰.

Ikki tomonlama munosabatlar boshqa sohalarida ham yaxshi emas edi. 1977-1980-yillarda birgalikda faoliyat ko'rsatgan quroolanishni har xil sohalaridagi sakkizta ishchi guruh o'z faoliyatini to'xtatdi, 1970-yillarning boshida tuzilgan, fan va texnika masalalari bo'yicha birgalikda ishlayotgan 11 ta komissiya faoliyati yakunlandi³¹.

1982-yilning iyun oyida britaniya parlamentidagi nutqida va 1983-yil mart oyida, Orlandodagi evangelistlarning milliy yig'lishida Reygan chaqiruvlarining "yomonlik imperiyasi"ga qarshi "ozodlik uchun salib yurishlariga" da'vat etgandi³².

Mazkur holatlarda sovet hukumati R. Reygan ma'muriyatini, ularning o'tmishdoshlari boshqa yillarda tiklangan aloqalarni, buzganlikda ayblashar edi xolos.

Amerika-sovet munosabatlari tez o'zgaruvchanligi va mamlakatni Sovet Ittifoqi bilan qurolli to'qnashishga olib kelishi bilan qo'rqitardi, ayniqsa, yakuniy natija juda ayanchli ko'rinishga ega edi. Bu vaqtga kelib yadroviy to'qnashuvlarning ehtimoliy oqibatlari ma'lum bo'ldi. Olimlar shuni isbotladilarki, jangda hal qiluvchi atom zarbasi beriladigan vaqt kelib, birdaniga 5-6 ming atom zaryatlari portlasa, bu portlash g'alabaga olib kelmaydi, balki, g'olibning boshiga tushadigan ayanchli oqibatlar, tabiatda og'ir musibatlariga olib keladi (1980-yillarning o'rtalariga kelib AQSH va SSSR o'rtacha olganda 50 minglik atom zaryadli taktik atom qurolli aslahalarga ega bo'lishgan)³³.

1984-yilning yanvar oyida R. Reygan kongressga murojatida, Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarni stabillashtirish uchun asos yaratishga tayyor ekanligi haqida e'lon qildi. Haqiqatdan ham, 1984-yil davomida sovet-amerika munosabatlarida bir muncha ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. May oyida dengizdagi mojarolarni oldini olish maqsadidagi kelishuv uch yilga uzaytirildi, iyun oyida, ma'lum bo'lishcha har ikki

²⁸ Островский В.П., Уткин А.И. История России. XX век. М., 1995. С.25

²⁹ Кредер А.А. Новейшая история. XX век, М., 1996. С.123

³⁰ Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999. с.87

³¹ <http://www.dissercat.com>

³² Островский В.П., Уткин А.И. История России. XX век. М., 1995. С.360.

³³ Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999. С.269



mamlakatda elchixona ochilish to'g'risidagi muzokaralar davom etishni boshladi va iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma o'n yilga uzaytirildi, va noyabr oyida, R. Reyganning prezident saylovda g'alabasidan so'ng, Moskva va Vashington 1985-yil yanvar oyida tashqi ishlar vazirlarining qurollanish musobaqasini chegaralash to'g'risidagi muzokaralarni tiklash masalasida uchrashuvi belgilandi.³⁴

AQSH tomonida o'zlarining strategik raketalarining ajraluvchi bosh qismlarining individual qo'llanish texnologiyasi, Sovet Ittifoqini mazkur masalada ishlashga majbur qildi. Natijada 1970-yillarning ikkinchi yarmida SSSR atom zaryatli raketalari sonini ikki hissaga ko'paytirdi:

AQSH yana yangi turdagi strategik tizimlarni yaratishga kirishdi. J. Karter ma'muriyatining portfelida bir necha shunaqa loyihalar bor edi. Ulardan biri-yuqori aniqlikka ega bo'lgan tayanch kuchi erda bo'lgan qit'alararo reketalari, ular o'nga ajraladigan zaryadlarga ega bo'lib, raketa shaxtalari va dushman istehkomlarini ishg'ol qilishga mo'ljallangan edi. Boshida erkin harakatlanuvchi yangi raketa punktlari, boshlang'ich joyi 4 mingga yaqin shaxtalarda erkin harakatlanishi rejalashtirilgandi, bu o'z navbatida dushman qaysi bir boshlang'ich istehkomda raketa borligini aniq bilmasligi uchun (keyinchalik esa mazkur reja qimmatligi uchun undan) voz kechganlar.

Shuningdek AQSHda yangi strategik bomba tashuvchilarning B-1B avlodi ustida ish boshlandi, ular Amerika strategik aviatsiyasining bir necha yillar davomida asosi bo'lgan, B-52 samalyotlarining o'rniga kelar edi. Oxir oqibat, atom zaryadlari masalasi bo'yicha ish yuritadigan, AQSH energetika vazirligining ichida, quvvati unchalik katta bo'lmagan, lekin kuchli nurlanshga ega bo'lgan –“toza” yoki “neytron” bomba ixtiro qilindi. Mazkur qurol jang maydonida, dushmanning tirik kuchini yo'qotish va material boyliklarga zarar etkazmaslik uchun, qo'llanilishi kerak edi³⁵.

Sovet-amerika munosabatlari, hujumda ishlatiladiga strategik qurollarni chegarash to'g'risidagi Shartnomasini tayyorlash, vaqtinchalik bo'lgan, 1972-yilda imzolangan strategik qurollarni chegaralash to'g'risida ba'zi bir choralari vaqtinchalik kelishuvni o'rniga imzolanishi kerak bo'lib, L. I. Brejnev tomonidan R. Nikson va J. Ford bilan 1974-yilning yoz va kuz oylarida erishgan kelishuvlari asos bo'ladi. Mazkur kelishuvlar bo'lajak shartnimaning umumiy holatini aniqlar edi:

- U 1985-yilgacha amal qilishi kerak edi;
- Chegaralaniluvchi hududlarga barcha atom strategik qurollarni tashuvchi vositalar, strategik aviatsiya bilan birgalikda;
- Tashuvchilarning soni 2400 dona etib belgilandi;
- Erda va dengizda reketalar soni 1320 etib chegaralandi³⁶.

Yangi ma'muriyatning bu kabi yondashishi sovetlar tomonidan qat'iy rad etildi. SHunga qo'shimcha qilib AQSHga muzokoralarning avval kelishilgan nuqtalaridan boshlash taklif qilindi.

³⁴ Островский В.П., Уткин А.И. История России. XX век. М., 1995.с.253

³⁵ Островский В.П., Уткин А.И. История России. XX век. М., 1995. С.255

³⁶ Кредер А.А. Новейшая история. XX век, М.. 1996. С.236



Keyinchalik o'tkazilgan muzokoralar tomonlarni ko'plab o'zaro kelishuvlarga kelishga majburladi. AQSH va SSSRga atom bombasi harbiy strategik masalasidagi eng muhim holatlarni saqlab qolishgan bo'lsada, atom-raketalar borasidagi poygani to'xtatish uchun, har ikki mamlakat ham o'zlarining harbiy rejalaridan voz kechishga majbur bo'ldi.

Sovet Ittifoqi strategik kuchlarini 250 donagacha ya'ni 10%gacha qisqartirishga rozi bo'ldi³⁷.

Sovet-amerika munosabatlaridagi qariyb besh yillik tanaffusdan keyin 1979-yil 16-18 iyunda Venada L. I. Brejnev va J. Karter o'rtasidagi oliy toifadagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuv doirasida hujumkor strategik qurollarni cheklash to'g'risidagi SQCH-2 shartnomasi imzolandi. Shartnoma 1985-yil 31-dekabrgacha bo'lgan muddatga imzolandi, unga ko'ra Sovet Ittifoqi va AQSH o'rtasidagi strategik qurollar soni bir xil bo'lishini ko'zladi. Tomonlar o'zlarining zimmlariga strategik tashuvchilar soning 2400 donada saqlashga kelishdilar, 1981-yilga kelib esa ularning sonini 2250 donagacha qisqartirishga kelishdilar³⁸.

Atom zaryadlari soniga ham cheklovlar o'rnatildi, har bir raketaga 10 dona zaryaddan ko'p emas, shuningdek bomba tashuvchilarga, qanotli raketalar bilan jihozlanganlariga har bir strategik bomba tashuvchiga uchish uzoqligi 600km bo'lgan 28dona qanotli raketadan ko'p bo'lmagan cheklov.

Sovet ittifoqi, shartnomani imzolayotganda bir tomonlama shartnomaga qo'l qo'ydi. SHunda, 1981-yilda tashuvchilarining sonini 2250 donagacha kamaytirishga rozi bo'lgach, SSSR o'zining strategik qudratini 10%ga qisqartirdi, ya'ni 254 tashuvchiga, bu vaqtda esa AQSH 36 dona tashuvchilarini yo'q qildi³⁹.

SQCH-2 shartnomasi imzolanganligidan boshlab AQSHning hukmron tabaqalarining tanqidiga uchradi. Ma'muriyatni, imzolangan shartnoma SSSR uchun bir tomonlama qulayligi va Qo'shma SHtatlar uchun qulay emas dedi, chunki, AQSH hududiga Sovet Ittifoqi tomonidan xavf solayotgan atom zaryadlari yo'lini yopmaganlikda ayblashdi. "Sovetlarga ishonish mumkin emas" deyishardi, buning dalili sifatida, ular o'zlaricha Sovet armiyasining Kubada 2600 odamli brigadasi borligini aytishardi⁴⁰.

1980-yillarning birinchi yarmida YAdroviy-raketa qurollarni cheklash masalasida sovet-amerika muzokaralari

Sovet-amerika munosabatlarida qurollanishni cheklash masalasi, R. Reyganning Oq uydagi birinchi muddati davomida, oxirgi o'n yillik ichida eng past nuqtaga tushdi. Hukumat tepasiga respublikachilar ma'muriyati kelib, L. I. Brejnevning diplomatik yo'l bilan Evropada o'rta masofada uchuvchi strategik qurollarni cheklash masalasini davom ettirish taklifini aniq javobsiz qoldirdilar.

1980-yilgi prezidentning saylov oldi kompaniyasida SQCH-2 shartnomasi respublikachilar tomonidan tanqid qilingan bo'lsada, R. Reygan ma'muriyati 1981-

³⁷ Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999. С. 457

³⁸ <http://www.bibliotekar.ru/>

³⁹ Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999. С. 257

⁴⁰ Островский В.П., Уткин А.И. История России. XX век. М., 1995.с. 258



yilning mart oyida, shartnomaning bo'limlariga rioya etishi, raketalariga qarsh mudofaa kelishuvini bajarishini, e'lon qildi. SHunga qaramay SSSR va AQSH o'rtasidagi shartnoma ommaviy tarzda qoralanib bordi. 1981-yilning may oyida R. Reygan Vest-Poyntdagi Harbiy akademianing bitiruvchilari oldidagi nurqida, SSSR bilan qurollarni qisqartirish to'g'risida muzokara olib borishini va SQCH-2 shartnomasini "o'lik" deb hisoblashini aytgan⁴¹.

Bundan tashqari, SSSRning erdagi va dengizdagi raketalari umumiy qilib olganda 94% strategik tashuvchilarni tashkil etardi, AQSHda esa bu ko'rsatkich – 76% (bomba tashuvchilarga o'z navbatida 6 va 24%), taklif etilayotgan SSSR AQSHdan ko'ra ikki baravar ko'p miqdorda ballistik raketalarini qisqartirishini ko'rsatardi. Lekin suv osti kemalaridagi ballistik raketalarining miqdor bo'yicha AQSH ustun bo'lgan (55%dan ko'proq SSSRning 25%ga qarshi), kam miqdorda e'tiborga olindi, shuningdek og'ir bomba tashuvchilar cheklash doirasidan chiqib ketgandi⁴².

Shakllangan startegik yadroviy tizimdagi biror bir qismdagi har qanday o'zgartirishlar, boshqa qismga tegishli bo'lmasa, u holda u so'zsiz strategik ustunlikni buzishga olib kelardi va, milliy xafvsizlik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, har ikkala tomon uchun ham ustunlikk yo'q edi.

Ikkinchi bosqichda AQSH, tashlanadiga yadroviy strategik zaryadlarning og'irligini 3,5 mln kg deb belgilashni taklif qildi. Bundan tashqari, sovet bomba tashuvchisi TU-22Mni umumiy hisobga qo'shish fikriga qaytishdi va buni bajargandan keyin, bomba tashuvchilar sonini har bir tomon uchun 400 donagacha chekladilar. AQSH tomonidan taklif etilgan 400 dona og'ir bomba tashuvchilar 20 dona uzoq masofali qanotli raketalar bilan birgalikda miqdori oxirida umumiy qilganda 8 ming atom zaryadlarini berar, unga yana 5 ming ballistik raketalarining jangovor zaryadlarini, umumiy qilib olganda AQSH strategik tashuvchilarda 13 ming jangovor atom zaryadlariga ega bo'lish imkoni bor edi⁴³.

Sovetlarning taklifi quydagilardan iborat, birinchi bosqichda SSSR va AQSH strategik jangavor zaryadlarning umumiy soni eng kam bosqichgacha tushirildi va hamma sohalarda qisqartirilish olib borildi, biror bir sohalar mustasno bo'lmadi o'zlarining strategik vositalarini 25%ga, ya'ni 1800 donaga⁴⁴.

Hujumda ishlatiladiga strategik qurollarni cheklash masalasidagi muzokaralarda SSSR uchun sezilarli hodisa bo'lib, NATOning 1983-yildan boshlab G'arbiy Evropada Amerikaning o'rta masofali vositalarini o'rnatishining "ikki karrali qarori", yangi dalil bo'ldi. Undan tashqari, mazkur "Pershin-2" raketalarida uchish vaqti (boshlang'ich nuqtadan nishongacha o'rtacha 6-10-daqiqa), mazkur vaziyatda aniq kontr qaror qabul qilishga muammo tug'dirar edi. Mana shuning uchun ham, NATOning "ikki karrali qarori"dan keyin, SSSR AQSH bilan o'rta masofali raketalarni cheklash to'g'risida muzokaralarni davom ettirishga chaqirdi⁴⁵.

⁴¹ Кредер А.А. Новейшая история. XX век, М.. 1996. С.478

⁴² <http://www.iqlib.ru/>

⁴³ <http://www.iqlib.ru/>

⁴⁴ Кредер А.А. Новейшая история. XX век, М.. 1996. С. 265

⁴⁵ Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999. С. 270



1981-yilning 30-noyabrida Jenevada Evropada atom qurollarini cheklash to'g'risidagi sovet-amerika muzokaralari yana ochildi. Bularning ochilishidan bir muddat oldinroq R. Reygan Evropada atom qurollar muammosini echimini e'lon qildi. Amerikaliklar, AQSH o'zlarining 572 dona o'rta masofali vositalarini Evropalik ittifoqdoshlari (108 dona "Pershing-2" o'rta masofali raketalari GFRda va 464 dona yadro tayanadigan qanotli raketalar GFR, Buyukbritaniya va Italiya) hududiga o'rnatishdan voz kechishi uchun, SSSR o'rta masofali barcha yangi tizimini o'rnatishdan voz kechishlari va mamlakatning Evropa hududida avvalroq joylashtirgan o'rta masofali raketalar R-12 va R-14ni, olib tashlashni taklif qildi. Movskvada o'ylaganlaridek, "nolinchi variant"ga muvofiq AQSH va NATO yadroviy qurol tashuvchilar hisobida ikki karra ko'p ustunlikka ega bo'lar va atom zaryadlari borasida uch karra⁴⁶.

Sovet Ittifoqi tomonidan 1950 va 1960-yillarda o'rnatilib, mehnat yillarini o'tab bo'lgan R-12 va R-14 raketalari o'rniga har ikkita o'rnatilayotgan yangi raketalar o'rniga uch dona eskisi chiqarayoganliklarini, ta'kidlardi. Keyin esa, Moskva o'zining o'rta masofali tizimini Shimoliy Atlantika (700 Amerika samolyotlari, shuningdek Buyuk Britaniyada 64 dona yadroviy raketa va Fransiyada 55dona bomba tashuvchi) birlashmasiga qarshi tayanch nuqtasi sifatida ko'rayotgandi⁴⁷.

Qariyb ikki yil davom etgan muzokaralar natajasiz bo'lganidan keyin, 1983-yilning noyabr oyida, AQSH o'zining o'rta masofali vositalari: GFR hududidagi "Pershin-2" va qanotli raketalarni, shuningdek Buyuk Britaniya va Italiyadagi qanotli raketalarini ochishni boshladilar.

Har ikki davlarning qurolli kuchlari to'qnashishiga bir lahza qolar edi. AQSH va SSSR munosabatlarining chigallashuv holatida, bunaqa vaziyatlar mojaroga olib kelishi mumkin edi. O'sha vaqtda, R. Reygan ma'muriyatining SSSRga bo'lgan munosabatini baholashda, sovet hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosat va yo'nalishi kelishmaganligi, Vashingtonni ikki davlat o'rtasidagi strategik muvozanatni buzishga olib keldi.

AQSH ma'muriyati SSSRdan harbiy jihatdan ustun bo'lish uchun nafaqat amerika millatini barcha kuchlarni mobillashtirdi, shuningdek, bunga NATOdagi ittifoqdoshlarini jalb etdi. Oxirida esa Amerika siyosatining SSSRga bosim o'tkazishi, Sovet ittifoqidagi ichki siyosat va iqtisodiy muammolar sovet hukumatini ko'pgina jabhalardagi siyosatini takomillashtirishga majbur qildi.⁴⁸

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История новейшего времени стран Европы и Америки. 1945-2000. Под ред. Е.Ф.Язькова. М. 2002.с.365
2. Алиева А.С. Всемирная история в таблицах и схемах. М., 1999.с. 525

⁴⁶ <http://www.iqlib.ru/>

⁴⁷ Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999. С. 125

⁴⁸ Бухарин Н.И. Строительство гражданского общества в странах Центральной и Юго-Восточной Европы. 90-годы XX века – начало XXI в./НИИ,2005,№1. С. 65



3. Малая энциклопедия событий, (Составитель Мирошникова В.В. и др.) М., 1999. С.54
4. Пятницкий Л.М. История России. XX век. М., 1995. С.125
5. Островский В.П., Уткин А.И. История России. XX век. М., 1995. С.25
6. Кредер А.А. Новейшая история. XX век, М.. 1996. С.123
7. Загладин Н.В. Всемирная история. Век XX. М. 1999 . с.87
8. Бухарин Н.И. Строительство гражданского общества в странах Центральной и Юго-Восточной Европы. 90-годы XX века – начало XXI в//ННИ,2005,№1. С. 65
9. <http://www.dissercat.com>
10. <http://www.iqlib.ru/>